

XORIIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RAG‘BATLANTIRISHNING**NAZARIY ASOSLARI**

Nurislom Temirov

ATIB Ipoteka Bank

nurislomtemirov@gmail.com

Bugungi globallashuv, xalqaro iqtisodiy integratsiya va transmilliy kapital harakati jadallashgan sharoitda xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning modernizatsiyasi va innovatsion rivojlanishiga turtki beruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro kapital oqimlari ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishning xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtiradi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish tizimini rivojlantiradi hamda iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi integratsion aloqalarni mustahkamlaydi.

Ayni paytda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish nafaqat moliyaviy resurslarni keltirib chiqarish bilan cheklanmaydi, balki ular bilan birga ilg'or boshqaruv tajribalari, marketing strategiyalari, texnologik innovatsiyalar va inson kapitali rivojiga xizmat qiluvchi bilimlar ham kirib keladi. Shu sababli, xorijiy sarmoya oqimlari mamlakatning iqtisodiy siyosati, institutsional islohotlar va tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Natijada, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish masalasi bugungi kunda har bir davlatning iqtisodiy strategiyasida markaziy o'rinni egallab, iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tish uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion muhitning jozibadorligi xorijiy kapital oqimini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsion muhitni yaxshilash, investorlar uchun huquqiy va moliyaviy kafolatlar yaratish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, shaffof soliq tizimini yo'lga qo'yish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Shu jarayonda davlatning roli investitsion siyosatni strategik yo'naltirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda ularning manfaatlarini himoya qilish bilan belgilanadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, soliq yengilliklari, bojxona imtiyozlari, moliyaviy barqarorlik, infratuzilma rivoji, siyosiy xavfsizlik, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi va xalqaro reytinglardagi o'rinni yaxshilash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu omillar uyg'un ravishda amal qilgan taqdirda, mamlakat investitsion jozibadorligi ortadi, iqtisodiyotda energetika, kimyo, mashinasozlik, to'qimachilik, logistika va axborot texnologiyalari kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoqlar rivojlanadi.

Xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Jahonda bu boradagi yondashuvlar klassik iqtisodchilar (A. Smit, D. Rikardo), neoklassik nazariya vakillari (J. Keynes, P. Samuelson) hamda zamonaviy institutsional maktab vakillari (D. Nort, J. Stiglitz) tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning nazariy qarashlari investitsion faollikni oshirishning makro va mikroiqtisodiy mexanizmlarini asoslab bergan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish masalasi bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda keng ko‘lamli nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Turli davr iqtisodchilari investitsiya oqimlarining iqtisodiy o‘rish, bandlik va texnologik taraqqiyotga ta‘sirini turlicha talqin qilgan. Klassik va neoklassik maktab vakillari investitsiyalarni kapital to‘planishining asosiy manbai sifatida baholagan bo‘lsa, zamonaviy institutsional va yangi iqtisodiy geografiya nazariyalari investitsion muhit, siyosiy barqarorlik va infratuzilmaning roli bilan izohlaydi.

So‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (UNCTAD, OECD, Jahon banki) tomonidan xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy hisobotlar va konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Shu bois, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish ushbu sohadagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasini aniqlash, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

M.Blomstrom nazariyasiga ko‘ra, ko‘plab davlatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun turli rag‘batlantiruvchi choralarni (masalan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar) qo‘llaydi. Uning fikricha, bunday rag‘batlar asosan xorijiy kompaniyalar olib kiradigan bilim va texnologiyalar, mahalliy firmalarga bo‘lgan ijobiy ta‘sir kabi ijtimoiy foydalar xususiy foydadan yuqori bo‘lganda asoslanadi [1]. Ya‘ni, xorijiy investitsiyalar natijasida mahalliy iqtisodiyotga texnologiya va bilimlar kirib keladi, raqobat kuchayadi va mahalliy firmalar ham rivojlanadi. Biroq, Blomstrom shuni ta‘kidlaydiki, agar bu ijtimoiy foydalar xususiy investorga to‘liq aks etmasa, davlatlar rag‘batlantiruvchi choralar orqali bu tafovutni qoplashga harakat qiladi. Aks holda, agar xususiy va ijtimoiy foyda teng bo‘lsa, maxsus rag‘batlarga zarurat qolmaydi.

J.Morisset esa xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq rag‘batlarining samaradorligini tahlil qiladi. U soliq imtiyozlari va rag‘batlari ko‘plab davlatlar tomonidan qo‘llanilayotganini tan oladi, biroq ularning samaradorligi har doim ham yuqori emasligini ta‘kidlaydi [3]. Morissetning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, soliq rag‘batlari investitsion muhitdagi jiddiy kamchiliklarni (masalan, infratuzilma, siyosiy barqarorlik, huquqiy muhit) bartaraf eta olmaydi va ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi. U, shuningdek, soliq rag‘batlari byudjetga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi va korrupsiya xavfini oshirishi mumkinligini qayd etadi. Biroq, boshqa sharoitlar teng bo‘lsa (masalan, infratuzilma, siyosiy barqarorlik), soliq siyosati investitsiya qarorlariga muayyan ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

A.Rugman ichkilashtirish nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, xalqaro tovar va omil bozorlaridagi nomukammalliklar (masalan, axborot asimmetriyasi, tranzaksiya xarajatlari) xorijiy investitsiyalar va transmilliy kompaniyalar faoliyatining asosiy sabablaridan biridir. Rugmanning ta'kidlashicha, kompaniyalar o'zlarining bilim, texnologiya va boshqa intellektual aktivlarini bozor orqali emas, balki o'z ichida (ya'ni, ichkilashtirish orqali) boshqarish orqali samaradorlikka erishadi [4]. Bu esa, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda davlatlar uchun muhim xulosa: investitsion muhitda bozor nomukammalliklarini kamaytirish, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

J.F. Hennart xorijiy investitsiyalarni jalb etishda Dunningning OLI (Ownership, Location, Internalization) modelini tanqidiy qayta ko'rib chiqadi. U, ayniqsa, joylashuv ustunliklari (location-specific advantages) barcha firmalar uchun bir xil emasligini ta'kidlaydi. Hennartning fikricha, ba'zi resurslar (masalan, tabiiy boyliklar, maxsus bilimlar) mahalliy firmalar tomonidan nazorat qilinadi va ular bu resurslardan monopoliyalashgan tarzda foyda olishlari mumkin [2]. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda nafaqat umumiy muhit, balki mahalliy resurslar va ularning boshqaruvi ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mahalliy firmalar va resurs egalari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning nazariy asoslarini tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion faollik mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, siyosiy ishonchliligi va institutsional rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, xorijiy sarmoya oqimlari faqat moliyaviy kapital bilan cheklanmay, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribalari va innovatsion bilimlar almashinuvini ham ta'minlaydi. Shu bois, investitsion siyosatni ishlab chiqishda davlatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan bir qatorda, intellektual va texnologik kapitalni jalb etishga qaratilgan mexanizmlarni ham takomillashtirishlari zarur.

Nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishning samarasi faqat imtiyoz va preferensiyalar tizimi bilan belgilanmaydi. Aksincha, iqtisodiy muhitning barqarorligi, huquqiy tizimning ishonchliligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va korrupsiyadan holi boshqaruv tizimi investitsion oqimni shakllantiruvchi hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Shu jihatdan, zamonaviy iqtisodiy nazariyalar xorijiy kapitalni jalb etish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanatli hamkorlikning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning dolzarbligi mamlakatning modernizatsiya va raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasi bilan bevosita bog'liq. Shu ma'noda, xalqaro kapital oqimlarini jalb qilish uchun qulay investitsion muhit yaratish, investorlarga nisbatan barqaror huquqiy kafolatlar tizimini yo'lga qo'yish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish zarur. Natijada,

xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda barqaror manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Blomström M. The economics of international investment incentives. Sede de la CEPAL en Santiago (Estudios e Investigaciones) 34904, Naciones Unidas Comisión Económica para América Latina y el Caribe (CEPAL). 2002.
2. Hennart J.F. Emerging market multinationals and the theory of the multinational enterprise. Global Strategy Journal, 2, 2012. p. 168-187.
3. Morrisset J. How Tax Policy and Incentives Affect Foreign Direct Investment: A Review. The World Bank and International Finance Corporation Foreign Investment Advisory Service. 1999. 34 p.
4. Rugman A. Internalization as a general theory of foreign direct investment: A re-appraisal of the literature. Review of World Economics, 1980. 116, p. 365-379.